


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70211701 – Xalq ijodiyoti magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024



1. ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti;

2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024- yil “1” avgust dagi277- sonli buyrug‘i bilan.

3. JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi	7
Bibliografik ma'lumotlar	9
Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

70211701-Xalq ijodiyoti magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70211701-Xalq ijodiyoti magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriyat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70211701-Xalq ijodiyoti magistratura mutaxassisligi "San'at" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tamoq ilmiy - tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy-ijodiy ishlab chiqarish birlashmalarda ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, shuningdek, madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda istiqbolli rejalarini belgilash, kasbiy ko'nikmaga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlari;

ma'naviy-ma'rifiy va madaniy jarayonlar;

folklor va etnografiyadagi jarayonlar, folklor va etnografiya haqidagi asarlar;

badiiy jamoalar, musiqaning ifoda vositalari, texnik vositalar, resurslar, usul va uslublar majmuasi;

folklor va etnografiyadagi ijodiy jarayonlar;

Xalq ijodiyoti folklor va etnografiyaga oid adabiyotlar, qo'lyozma asarlar, arxiv hujjatlari, tasviriylar va axborot materiallari, resurslar, vositalar, usul va uslublar tahlili jarayonlari;

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ijodiy-ishlab-chiqarish faoliyati;

1.2.4. 70211701-Xalq ijodiyoti mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari

70211701-Xalq ijodiyoti mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvosiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlili qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'iga eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy-ijodiy lohiyalarni ishlab chiqish, uchmlayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'llim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'llim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy xborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-Learning), mobil (m-Learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:

ijodiy-ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

madaniyat va san'at tizimida alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgalik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat faoliyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

ijodiy loyihalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

mehnat, moddiy va axborot resurslarining ratsional boshqaruvini ta'minlash, boshqaruvni madaniy-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy-tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba va natijalarni qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'llim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

madaniyat va san'at muassasalari ish rejalarini ishlab chiqish, nazorat qilish va kerakli hollarda talab darajasiga moslashtirishni bilishi;

ijodiy jamoalar faoliyatini muvofiqlashtira olishi;

madaniy tadbirlar o'tkazishni tashkillashtirish jarayoniga rahbarlik qila olishi; madaniyat va san'at sohasi tizimlari ish holatini doimiy nazorat qilib borishi; tahlillar o'tkazish va kerakli hollarda ularni ish holatini muvofiqlashtirishi; tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etishi;

madaniy tadbirlarning yangi zamонавиј шакларини ishlab chiqish va tashkillashtira olishi;

aholining madaniy dam olishini tashkillashtira olish, nomoddiy madaniy merojni asrab-avaylash va uni targ'ib qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi;

folklor va etnografiya sohasiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazishni bilishi.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrler tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamонавиј texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

Fanlar katologining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylukdagi yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Umumiylukdagi majburiy fanlar	1200	40	
1.01	ITM 10014	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M 10012	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	60	2	2
Xalq ijodiyoti: cholg'u ijrochiligi mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	ChJBNA 100130	Cholg'u jamoalarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti	900	30	1,2,3
1.04	KZMD 10014	Kompyuterda zamонавиј musiqiy dasturlar	120	4	2
2.00		Tanlov fanlar	600	20	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
Kvalifikatsiya <i>Cholg'u ijrochiligi, pedagog-tadqiqotchi.</i>					
Xalq ijodiyoti: folklor va etnografiya mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	FJBN 100112	Folklor jamoalarini boshqarishning nazariy asoslari	360	12	1,2,3
1.04	QF 100112	Qiyosiy folklorshunoslik	360	12	1,2
1.05	FMTNE 100110	Folklor materiallarni toplash va nashr etish metodikasi	300	10	1,2
2.00		Tanlov fanlar	600	20	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
Kvalifikatsiya <i>Folklorshunos, etnograf, pedagog-tadqiqotchi.</i>					

Xalq ijodiyoti: ashula va raqs mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.03	ARABIA 100114	Ashula va raqs ansambl bilan ishlash amaliyoti	420	14	1,2,3
1.04	RSFA100110	Raqs san'atining falsafiy asoslari	300	10	1,2
1.05	AIA 100110	An'anaviy ijrochilik asoslari	300	10	2,3
2.00		Tanlov fanlar	600	20	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
<i>Kvalifikatsiya</i>					
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITMDTHQ 102336	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI 102314	Ilmiy-pedagogik ish	420	14	1,2,3,4
3.03	IA 102310	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	300	10	4
HAMMASI					
			3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning ta'lim dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, fan, texnika, metodologiya, tadqiqot, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, pedagogik texnologiyalar, axborot tizimlari, nutq madaniyati, folklor musiqa san'atining badiiy va hissiy ijro etilish usullari; folklor musiqa kuylari yo'nalishida ijod qilayotgan ijrochilarining boy merosini o'rganish, folklor musiqa kuylarini notalashtirish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N.R.Sayfulayev

2024-yil "

M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari

Direktor  M.R.Boltaboyev

2024-yil "

M.O.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti

Rektor  O.A.Nazarbekov

M.O.

O'zbekiston davlat konservatoriysi

Rektor  K.T.Urinbayev

2024-yil "

M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi
Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish

bo'limi

Bo'lim boshlig'i  O.R.Salixov

2024-yil "

M.O.


Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor y.b.  I.A.Dadajanova

2024-yil "

M.O.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi

Bosh direktor  A.Y.Tojiboyev

2024-yil "

M.O.